



YOUTH AND VALUES IN MODERN SOCIETY: FACTORS OF SOCIAL ACTIVITY

Gulnoza Karimova

senior lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, culture, value, national values, spiritual values, religious values, local values, National idea.

Received: 01.06.25

Accepted: 03.06.25

Published: 05.06.25

Abstract: this article analyzes the role of national and universal values in increasing the social activity of young people in modern society. Special attention is paid to the formation of an active civic position of the younger generation, the expansion of its participation in social processes in society and the influence of values in spiritual and moral education. The article also highlights the role and importance of Family, Educational Institutions and civil society institutions in promoting youth activism. On the basis of scientific analysis, factors and effective guidance that positively affect the social activity of modern youth have been proposed.

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR VA QADRIYATLAR: IJTIMOYIY FAOLLIK OMILLARI

Gulnoza Karimova

katta o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, madaniyat, qadriyat, milliy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, mahalliy qadriyatlar, milliy g'oya.

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tutgan o'rni tahlil qilingan. Yosh avlodning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiytdagi ijtimoiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyada qadriyatlarning ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada shuningdek, yoshlarning faolligini

rag'batlantirishda oila, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Ilmiy tahlillar asosida zamonaviy yoshlarning ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar va samarali yo'l-yo'riqlar taklif etilgan.

МОЛОДЕЖЬ И ЦЕННОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ: ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ

Гулноза Каримова

старший преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	общество, культура, ценность, национальные ценности, духовные ценности, религиозные ценности, местные ценности, национальная идея.
Аннотация:	В данной статье анализируется роль национальных и общечеловеческих ценностей в повышении социальной активности молодежи в современном обществе. Особое внимание уделяется формированию активной гражданской позиции подрастающего поколения, расширению его участия в социальных процессах в обществе и влиянию ценностей в духовно-нравственном воспитании. В статье также освещается роль и значение семьи, образовательных учреждений и институтов гражданского общества в стимулировании активности молодежи. На основе научного анализа были предложены факторы, положительно влияющие на социальную активность современной молодежи, и эффективные ориентиры.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, avvalo, yosh avlodning qanday shaxs sifatida voyaga yetayotgani bilan bevosita bog'liq. Yoshlar - har qanday mamlakatning ertasi, uning ilg'or harakatlashtiruvchi kuchi sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatdagi o'z o'rini anglashi va unga munosib hissa qo'shishi bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda qadriyatlarning roli beqiyos. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy qarashlarini shakllantirishda, ma'naviy yetuklikka erishishida, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlashda asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Milliy qadriyatlar yoshlarning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, "zamon qahramoni" haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi[1].

ASOSIY QISM

Qadriyat turlariga inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar, insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar, odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar, kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni keltirishimiz mumkin.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o'rganish mumkin:

1. umuminsoniy qadriyatlar.
2. mintaqaviy qadriyatlar.
3. milliy qadriyatlar.
4. diniy qadriyatlar[2].

Umuminsoniy qadriyatlar – bashariyatning o'tmishi, buguni va kelajagiga bevosita dahl qiladigan, u tomonidan asrlar davomida ardoqlanib, qadrlanib kelinadigan moddiy va ma'naviy boyliklar sanaladi.

Mintaqaviy qadriyatlar muayya hududda yashovchi xalqlarning o'tmishi, buguni va kelajagiga bevosita dahl qiladigan, u tomonidan asrlar davomida ardoqlanib, qadrlanib kelinadigan moddiy va ma'naviy boyliklardir.

Milliy qadriyatlar – birgina millat, elatning o'tmishi, buguni va kelajagiga bevosita dahl qiladigan, u tomonidan asrlar davomida ardoqlanib, qadrlanib kelinadigan moddiy va ma'naviy boyliklar hisoblanadi.

Diniy qadriyatlar – bashariyat, muayyan xalq, millat va elatning diniy e'tiqodini, hayotiy yondashuvlari va turmush tarzini ifodalovchi g'oyalar, qarashlar hisoblanadi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy-ma'naviy qadriyatlar – ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish zarur hisoblanadi. milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi[3].

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya – jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Shaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Hozirgi kunda ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham inson qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Shu o'rinda mamlakatimizda kechayotgan tub o'zgarishlar, islohotlarning mohiyati ham ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Bu tamoyilni amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurning shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq yillar davomida totalitar tuzumga qaramay o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, an'analari saqlanib qolindi.

O'zbek xalqiga xos milliy yondashuvlarining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi.

Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy demokratik qadriyatlarni kiritamiz. Bu – inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va h.k.

“Milliy qadriyatlar” tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

1. tarixiy meros va tarixiy xotira.
2. madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar.
3. ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari.
4. san'at va milliy adabiyot.
5. Axloqiy fazilatlar.
6. diniy qadriyatlar.
7. urf-odat, an'ana va marosimlar.

8. ma'rifat, ta'lim-tarbiya va h.k.

Milliy qadriyatlar negizida quyidagi ustuvor g'oyalar yotadi:

1. O'zbek xalqi hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.
2. Xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr – do'st va yaxshi qo'shni bo'lib, tinchlik va totuvlikda, yaqindan hamkorlikda yashash.
3. Oila, mahalla, el-yurt, vatan tushunchalarini muqaddas bilish.
4. Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e'tibor, butun jamiyatni hurmat qilish.
5. Millatning o'lmas ruhi, millat ma'naviyatining hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat, uni sevisish.
6. Kattalarga – hurmat, kichiklarga izzat tamoyiliga amal qilish.
7. Ayol zotiga ehtirom ya'ni, muhabbat, go'zallik va nafosat timsoli, abadiy hayot ramzi bo'lgan ayolni qadrlash.
8. Sabr-toqat, va mehnatsevarlik.
9. Halollik, mehr-oqibat va b.

Shunday qilib, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyata ustuvor bo'lgan milliy g'oyalar: milliy qadriyatlarga va uhuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur. Qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va milliy manfaatlariga, moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbai. U milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish - faqatgina ularni ma'lum bir harakatlarga jalb etish emas, balki ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, ma'naviy yetuklikni shakllantirish demakdir. Qadriyatlar - yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda asosiy tayanch hisoblanadi. Ular orqali yoshlar o'zligini anglaydi, jamiyatdagi o'rnini belgilaydi va uning taraqqiyotiga faol hissa qo'shishga intiladi.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda oila, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu tizimli va uyg'un yondashuv orqali jamiyatda ma'naviy barqarorlik va faol fuqarolik muhitini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 177-178-b.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: “Fan”, 1996 y. – 43-b.
3. Milliy istiqlol g'oyasi / I.Ergashev va b.: bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: Akademiya, 2005 y. 195-200-b.
4. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда кадрятларнинг аҳамияти. *Перекрёсток Культуры*, 2(1).
5. Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2021). Ахборот оқими ва ахборот маданиятининг шаклланиш тенденциялари. *Scientific progress*, 2(3), 743-750.